

Tayyorlov guruhlari mashg'ulotlari va 1-sinf darsliklarining o'zaro bog'liqlikda tashkil etish

Asliddin Erkinovich Nuriddinov

Shahlo Ibragim qizi Quldosheva

Moxichehra Raxmatillayeva Baxrillayeva

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Annotatsiya: ushbu maqola keyingi yillarda maktabgacha ta'lismida bolalarni umumta'lim maktabiga tayyorlash va ularni maktab sharoitiga mos ravishda qiyinchiliksiz o'qitish jarayoniga bag'ishlangan. Unda maktabgacha ta'lismi tashkil etish va tayyorgarlik guruhlari o'quvchilarining ta'lim faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikdagi yangiliklar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, taraqqiyot, yangilik, islohot, matematika, ona tili, o'qish, alifbo, nutqni rivojlantirish

Organization of preparatory group classes and 1st grade textbooks in relation to each other

Asliddin Erkinovich Nuriddinov

Shahlo Ibragim kizi Kuldosheva

Mohichehra Rakhmatillayeva Bakhrillayeva

Urgut Branch of Samarkand State University

Abstract: This article is devoted to the process of preparing children for general education in the preschool education system in the following years and educating them without difficulty in accordance with school conditions. It examines the innovations in the connection between the organization of preschool education and the educational activities of students of preparatory groups.

Keywords: education, upbringing, development, innovation, reform, mathematics, mother tongue, reading, alphabet, speech development

Bugungi tez rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti davrida ta'limga bo'lган extiyoj har zamongidanda yuksaldi. Jumladan fan texnika asri bo'lган XXI asrda insonlar oldingi eski bilimlar o'rmini zamonaviy har tomonlama inson manfaatlariga xizmat qiluvchi bilmlarni bosqichma bosqich osondan murakkabga qarab bolalar psixologiyasiga aqliy, jismoniy, psixologik rivojlanishiga zo'riqishlarsiz ta'sir etgan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. shu boisdan ta'larning ilk bosqichi

bo'lgan maktabgacha ta'lism yozshidan boshlab bolalarega oddiydan murakkabga qarab ta'lism tarbiya berish muhimdir. shu jumladan bilimlarning bolalarga mos bo'lishi qoidasi yuzasidan bilim berishning muhim ikki jihatiga e'tibor qaratiladi:

a) Berilayotgan bilimlarning xususiyati ma'nosи va miqdori maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va individual rivojlanish xusisyatlariga to'g'ri kelishi

b) O'quv materillarining hajmi maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar aqliy imkoniyatlariga to'g'ri kelishi lozim. O'quv materiallarining tarbiyalanuvchilarga mos bo'lishi quyidagi qoidalarga asoslanadi: "Oson ma'lumotlardan murakkabga qarab borishiga", "Aniordan noaniqqa qarab borish", "Oddiydan murakkabga qarab borishiga".

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida olib boriladigan o'quv tarbiyaviy hamda sog'lomlashtish ishlarini tashkil etish "Maktabgacha ta'lism va tarbiyani tashkil etishning Davlat standartlari¹" va 2022-yil 4-fevralda Maktabgacha "Takomillashtirilgan ilk qadam²" davlat o'quv dasturi asosida tashkil etilgan bo'lishi kerak. Shundagina olib boriladigan pedagogik jarayon hamda kutilayotgan natija ham shunga yarasha bo'ladi.

- Maktabgacha ta'lism tashkilotlaridagi ta'lism-tarbiyaviy ishlar jarayonida bolalarning har tomonlama rivojlanishining zaruriy darajasiga yetish uchun maktabga qo'yiladigan talablarga yo'nalganligi;

- Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ta'lism tarbiya jarayonini tashkil etish asnosida ularga maktabgacha ta'lismning asosiy masadi bo'lgan bolalarni maktabga har tomonlama jismoniy, psixologik va aqliy tomondan sifatli tayyorlash jarayonini ifodalarydi. Shu boisdan bolalar Maktabgacha ta'lism tashkilotida tayyorlov guruhida beriladigan umumiy faoliyatlar natijasida matab darslariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, matab ta'liming yangi o'quv mashg'ulotlariga o'tish bola uchun sezilarsiz bo'lgan psixologik qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Agar hamkorlikerta vatdan boshlab to'g'ri izchillikda yo'lga qo'yilsa bolalarda maktabga chiqish hamda matab sharoitlariga ko'nikish davridagi inqirozlar sababli bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishlarining so'ndirmay davom ettirishiga olib keladi. Maktabgacha ta'lism tashkiloti va maktabdagi butun pedagogik jarayonning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'nalaganligi ular o'rtasida ta'lism-tarbiya izchilligiga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Bolalarga ilk ta'lism beriladigan maktabgacha ta'lism tashkilotlarida olib boriladigan tayyorlov guruhlaridagi umumiyl faoliyatlar "Nutq o'stirish", "Savodxonlik", "Elementar matematika", mashg'ulotlari hamda faoliyat markazlarida olib boriladigan "Badiiy adabiyot bilan tanishtirish", "Atrofizmizdag'i olam" "Loy ishi" "Aplikatsiya", "Tasviriy faoliyat", "Qurish yasash va matematika" ishlari

¹ "Maktabgacha ta'lism va tarbiyaning Davlat standartlari" Maktabgacha ta'lism vazirligining 802-sen Qarori

² "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2018-yil Toshkent

maktabda 1-sinf darslariga mutlaqo yaqinlashtirilgan holda tashkil etilishi kerak. Bu faoliyatlar natijasida tarbiyalanuvchilar quyidagi ko'nikmalar shakllanishi asosida məktəb təlimiga təyyorlanaid. Məktəbə təyyorgarlıq quyidagi ko'nikmalar asosida amalga oshiriladi:

1. Nutq, o'qish va savodga təyyorgarlıq;
2. Bilish jarayoni: atrof-olam to'g'risidagi biliş ega bo'lish va uni anglash.
- a) Elementar matematik biliş va ko'nikmalar;
- b) Tasviriy faoliyat;
- c) Musiqa.

Nutq o'stirish faoliyatida olgan ko'nikmalar bevosita 1-sinf darsligida "Alifbe" hamda "O'qish" darsliklarini uzviy davomi hisoblanadi:

- Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish;
- Lug'at ustida ishslash;
- Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish;
- Bog'lanishli nutqni shakllantirish;
- Ijodiy hikoya qilish;
- Badiiy adabiyot bilan tanishtirish ishlari olib boriladi.

Bolalar nutqini o'stirish mashg'ulotlarida olgan bilimlari davomida bolalarda qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lishi bolaning məktəbə aqliy nihatdan təyyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ona tilidagi hamma tovushlarni va harflarni aniq va to'g'ri talaffuz qilish, lug'atlarining boyligi, o'z fikrini mantiqiy Grammatik to'g'ri bayon qila bilish, madaniy nutq muomalasi - bularning barchasi məktəbda muvaffaqiyatli o'qishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shuningdek, kesma harflar yordamida tovushharf tahlil va sintez bo'yicha mashqlarni bajarishga o'rgatish, kesma harflardan bo'g'in tuzdirish va o'qitish, unli va undosh tovushlar xususiyatlari, o'z ismini va 2-3 ta so'zlarni bosma harflarda mustaqil o'qishga o'rgatib boriladi. Bu təyyorgarlıq davridagi tushunchalar məktəb davrida mustahkamlanib, chuqurlashtirib boriladi.

"Elementar matematika" biliş va ko'nikmalar bo'limida bolalar 1-sinf uchun "Matematik" yoki "Mantiqiy matematika" fanlarini uzviy davom ettirish uchun asosiy biliş va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Ular quyidagilardir:

- son-sanoq, kattalik, geometrik figuralar, tevarak-atrofni mo'ljaiga olish, vaqtini chandalash, qurish-yasash faoliyatları orqali amalga oshiriladi. Bolalarda pul qiymatlari, narx, plastik kartochka, terminal haqida dastlabki tushunchalar beriladi. Yil fasllari, yil taqvimi, hafta kunlari, soat turlari bilan tanishtiriladi.

"Tasviriy faoliyat" mazmuni yanada murakkablashadi. Inson qiyofasi detallashtirilgan holati, san'at asarlari bilan tanishtiriladi. Bunda predmetli va voqeaband rasm chizish, bezakli rasm, plastilin (loy) bilan ishslash, aplekatsiya, qurishyasash, qurilish materiallarini konstruksiyalash, qog'ozdan konstruksiyalar hosil

qilish, tabiiy materiallardan, qurishyasash materiallaridan, konstruktorlik detallarni, qurilish materiallaridan konstruksiyalar hosil qilish va badiiy qo'l mehnati o'rgatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlangan "Musiqa mashg'ulotlari" maktab ta'limida ham bevosita davom ettiriladi ular orqali quyidagi ko'nikmalar davom ettiriladi: musiqa tinglash, musiqiy-ritmik harakatlar, qo'shiq aytish, bolalar cholg'u asboblarida chalish, turli harakatli o'yinlar o'rgatiladi.

Shuningdek, Ona Vatan, mashhur sarkardalar, buyuk siymolar, xalq amaliy san'ati, an'anaviy bayramlar, kattalar mehnati, transport va aloqa vositalari, buyumlar haqida bola o'z tanasining qismlarini o'rganish orqali boshlang'ich sinf ta'limiga tayyorlanadi. Bu bilim va ko'nikmalar bolalarni 1-sinf dagi tegishli o'quv fanlarini egallashlari uchun tayyorgarliklarini tashkil qiladi. Ko'pchilik psixolog-pedagog olimlarning (A.M.Leushina, D.B.Elkonin, L.E.Jurova, F.R.Qodirova) ta'kidlashicha, maktabgacha ta'lim tashkilotida va maktab ta'limidagi o'qitishdagi bog'liqlik maktabda fanlarni o'qitish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi. Shunday qilib maktabdagi o'qishga aqliy tayyorgarlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o'zaro bog'langan tarkibiy qismlaridan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof-olam haqidagi anglangan, tizimlashtirilgan tasavvurlar hamda elementar tasavvurlar, nutq va elementar o'quv faoliyati umumiylar darajasining birligi bolalarda maktabdagi o'quv materialini egallahsga aqliy tayyorgarlikni vujudga keltiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhiba ta'lim tarbiyaviy faoliyatni tashkil etuvchi faoliyat dasturlari kelajakda bolaning maktab ta'limidagi fanlarni davom ettirishi uchun asos bo'lib hizmat qiladi. Ayna bu fanlar bog'liqligini uzviy holda davom ettirolgan pedagoglar bolalarni maktab ta'limidagi qiyinchiliklardan oson olib o'tishiga yordam beradi. Biz maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarga olib bordigan frontal "Nutq o'stirish", "Elementar matematika", "Savodxonlik" faoliyatlarini maktabda o'qitiladigan "Alifbe", Matematika", "O'qish", kabi fanlarning poydevoridir. Biz maktabgacha ta'lim tashkilotida "Elementar matematika" faoliyatida hisob kitob, fazoda mo'ljal olish, vaqtini idrok qilish, geometrik figura va shakllar haqida dastlabki tushunchalarni beramiz, maktabda esa bolalar shu bilimlarni yanada takomillashtiradi. "Savodxonlik" faoliyati esa maktabgacha ta'lim tashkilotida "alifbe" fanining o'tilishi uchun poydevor bo'lib hizmat qiladi.

Umumiylarda maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyachasi hamda 1-sinf o'qituvchisi hamkorlik qilishi jarayoni bolalarni makta ta'limiga har jihatdan tayyorlanishiga, psixologik jihatdan moslashishiga ham qulaydir. Jumladan bolalarni maktabga sayohatga olib borish, maktab hayoti bilan illiq tassurotlar ila tanishtirish bolada maktabda o'qishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi.

Maktabga tayyorlov guruhi mashg'ulotlari va 1-sinf mashg'ulotlarida o'tiladigan fanlarning o'zaro bog'liqliklari quyida keltirib o'tilgan:

Maktabgacha ta'lif tashkilotida mashg'ulotlar nomi	Maktabda 1-sinflarda o'tiladigan fanlar
Elementar matematika	Matematika
Atrofi olam bilan tashtirish	Atrofi olam
Nutq o'stirish	Alifbe
Jismoniy tarbiya	Jismoniy tarbiya
Musiqa	Musiqa
Ingliz tili	Ingliz tili
Aplikatsiya	Texnologiya

Maktabga tayyorlov guruhi mashg'ulotlari va 1-sinf mashg'ulotlarida o'tiladigan mavzularining o'zaro bog'liqlik ko'rsatgichlari quyida keltirib o'tilgan:

Elementar matematika	Matematika
1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning atalishi	1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning atalishi
1 dan 10 gacha o'ng va teskari sanash	1 dan 10 gacha o'ng va teskari sanash
Kata kichik teng tushunchalarini o'rgatish	Kata kichik teng tushunchalarini o'rgatish
100 gacha bo'lgan o'nliklarni o'rgatish	100 gacha bo'lgan o'nliklarni o'rgatish
Narsalarning o'lchami bo'yicha taqqoslash	Narsalarning o'lchami bo'yicha taqqoslash
Narsalarning xossalari bo'yicha to'plamga ajratish	Narsalarning xossalari bo'yicha to'plamga ajratish
10 gacha bo'lgan sonlar ichida qo'shish ayrish ammallarini bajarish	10 gacha bo'lgan sonlar ichida qo'shish ayrish ammallarini bajarish

Atrofi olam bilan tanishtirish	Atrofi olam
Kun tartibiga odatlantirish	Kun tartibini o'rgatish
Shaxsiy gigiyena qoidalarini o'rgatish	Shaxsiy gigiyena qoidalarini o'rgatish
Ko'chada yurish qoidalarini o'rgatish	Ko'chada yurish qoidalarini o'rgatish
Yil fasllarini o'rgatish	Yil fasllarini o'rgatish

Nutq o'stirish	Alifbe
Harflar tanishtiriladi	Harflar tanishtiriladi
Unli undosh tovishlar o'rgatiladi	Unli undosh tovishlar o'rgatiladi
So'zlarni bog'inlab o'qish o'rgatiladi	So'zlarni bog'inlab o'qish o'rgatiladi
Rasmga qarab hikoya tuzishga o'rgatiladi	Rasmga qarab hikoya tuzishga o'rgatiladi

Jismoniy tarbiya	Jismoniy tarbiya
Kun tartibiga rioya qilish o'rgatiladi	Kun tartibiga rioya qilish o'rgatiladi
60 metr metrga to'xtamasdan yugurib o'tishi kerak	60 metr metrga to'xtamasdan yugurib o'tishi kerak
Saflanish va qayta saflanish o'rgatiladi	Saflanish va qayta saflanish o'rgatiladi
Jismoniy tarbiya o'tishning asl maqsadi bolalarni fikrni jamlash, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik sifatlarini o'rgatishga qaratilgan.	Jismoniy tarbiya o'tishning asl maqsadi bolalarni fikrni jamlash, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik sifatlarini o'rgatishga qaratilgan.

Musiqa	Musiqa
Milliy cholg'u asbloblari bilan tanishtirish	Milliy cholg'u asbloblari bilan tanishtirish
Notalarini o'rgatish	Notalarini o'rgatish
Tovushlarning baland pasligini o'rgatish	Tovushlarning baland pasligini o'rgatish
Tovushlarning turlarini o'rgatish	Tovushlarning turlarini o'rgatish

Ingliz tili	Ingliz tili
O'qish va yozuvsiz o'rgatiladi	O'qish va yozuvsiz o'rgatiladi
Mashqlar, o'yinlar, qo'shiqlar orqali o'rgatiladi	Mashqlar, o'yinlar, qo'shiqlar orqali o'rgatiladi

Til o'rgatish rasm chizish va bo'yash orqali mustaxkamlanadi	Til o'rgatish rasm chizish va bo'yash orqali mustaxkamlanadi
--------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------

Aplikatsiya	Texnalogiya
Qaychi bilan ishlash texnikasi o'rgatiladi	Qaychi bilan ishlash texnikasi o'rgatiladi
Yelim bilan ishlash qoidalari o'rgatiladi	Yelim bilan ishlash qoidalari o'rgatiladi
Qog'oz va uning turlari o'rgatiladi	Qog'oz va uning turlari o'rgatiladi
Qog'ozni qo'lda yirtish o'rgatiladi	Qog'ozni qo'lда yirtish o'rgatiladi
Qog'ozni buklash orqli narsalar yasash o'rgatiladi	Qog'ozni buklash orqli narsalar yasash o'rgatiladi
Mazaika usulda narsalar yasash o'rgatiladi	Mazaika usulda narsalar yasash o'rgatiladi

Xulosa qilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda ta'lim-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishdagi izchillik bola shaxsini rivojlantirishni amalga oshirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bolani maktab ta'limiga moslashtirish, maktab hayotiga qiyinchiliklarsiz moslashishi uchun tayyorlov guruhlaridan boshlab bolalarni maktab darsliklariga mos ravishda o'qitish jarayonini boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyachisi va maktab boshlang'ich sinf o'qitiuvchilari hamkorlikda ish jarayonlarini tashkil etishi, maktablarga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini ekskursiyaga tashrif buyurushi zarurdir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Takomillashtirilgan ilk qadam" davlat o'quv dasturi Toshkent 2022-yil 4-fevral
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat standartlari" Toshkent 2020 yil
3. F.Qodirova va boshqalar "Maktabgacha pedagogika" darslik 2019-yil
4. Fayzullayev, S. N. (2023). "ILM YO'LI" VARIATIV DASTURINING BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 143-144.